UDK: 81’276.6 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a77**

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOMPYUTER TERMINOGRAFIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КОМПЬЮТЕРНОЙ ТЕРМИНОГРАФИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

LINGUISTIC FEATURES OF COMPUTER TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi[1]

Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi[1] − Farg‘ona davlat universiteti lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi globallashuv jarayonida keng tarqalgan kompyuter va internet terminlarini lingvistik tadqiqi bayon etilgan. Kompyuter va internet terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning keng omma orasida ham hech qanday qiyinchiliksiz tushunilishi va ishlatilishidir. Shu nuqtayi nazardan, kompyuter terminografiyasi, kompyuter terminologiyasining etimologiyasi, metaforik xususiyatlari, terminologizatsiya jarayonining terminograflar va leksikograflar tomonidan qabul qilinishini farqli jihatlarini keltirishni lozim topdik. Ushbu tadqiqot davomida ingliz tilidagi terminlarning o‘zbek tili terminologiyasiga o‘zlashish jarayoni, ularning kelib chiqishi tahlil etilgan.

Аннотация

В статье описывается лингвистическое исследование компьютерных и интернет-терминов, которые распространены в процессе глобализации. Одной из уникальных особенностей компьютерной и интернет-терминологии является то, что их легко понять и использовать широкой публике. С этой точки зрения мы сочли необходимым привести различные аспекты компьютерной терминологии, этимологию компьютерной терминологии, метафорические особенности, восприятие терминологического процесса терминографами и лексикографами. В данном исследовании анализируется процесс ассимиляции английских терминов в узбекскую терминологию и их происхождение.

Abstract

The article describes the linguistic research of computer and internet terms that are common in the current globalisation process. One of the peculiarities of computer and internet terminology is that they can be understood and used even among the general public. From this point of view, we have found that computer terminology, the etymology of computer terminology, the metaphorical characteristics should bring different aspects of its acceptance by terminologists and lexicographers. In the course of this study, the process of mastering English terms in the terminology of the Uzbek language, their origin were analyzed.

Kalit so‘zlar: *terminografiya, kompyuter, hisoblash texnikasi, terminologizatsiya, termin – o‘zlashmalar, terminografiya, leksikografiya.*

Ключевые слова: *терминография, компьютер, вычислительная техника, терминологизация, термины-заимствования, терминография, лексикография.*

Key words: *terminography, computer, computational techniques, terminologization, terms – borrowings, terminography, lexicography.*

KIRISH

Tilshunoslar kompyuter va internet atamalarining shakllanishini ikki yo‘nalishda tatbiq etadilar:

1. Kompyuter va Internetda obyektlar va hodisalarni ifodalash uchun ko‘plab yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda, natijada, soha mutaxassislari tomonidan ishlatiladigan terminologiya lug‘ati paydo bo‘ldi.

2. Butunjahon Internet tarmog‘idan foydalanuvchilar soni tobora oshib bormoqda, ular internet aloqasi uchun noyob lug‘at va so‘z shakllantirish vositalaridan alohida foydalanish orqali o‘z tillarini yaratadilar. Albatta, kommunikativ kompyuter tilining aspekti internetning leksik tarkibidan farq qiladi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kompyuter va internet texnologiyalarining rivojlanishi tilda yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga ta’sir qiladi. M.M.Baxtin aytganidek, “... odamlarning barcha sohalardagi faoliyati tildan qanday foydalanish bilan bog‘liq” [1] hamda kompyuter va internet tarmoqlari ham bundan mustasno emas.

Biz ushbu qismda kundalik hayotimizda duch kelayotgan va ommalashayotgan kompyuter terminlarining, etimologik, nazariy xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bermoqchimiz. Ma'lumki, kompyuter terminlarining aksariyati birinchi navbatda dasturchilar, dasturiy ta'minot muhandislari yoki apparat mutaxassislari kabi kompyuter mutaxassislariga ma'lum. Masalan, kompyuterning aksariyat apparat qismlarining nomlari, dasturiy ta'minot yozilgan dasturlash tillarining tarkibiy qismlari va jarayonlarining nomlari va boshqalar barcha omma uchun qiyinchilikka sabab bo‘ladi. Ushbu ixtisoslashgan so‘zlar umumiy tilda kamdan – kam uchraganligi sababli, ular leksikograflarning emas, balki terminograflarning tashvishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Termin, tilshunoslikning asosiy birligi sifatida izchillik, aniqliq, ilmiy tushuncha bilan aloqadorlik kabi xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, asosiy leksik va semantik jarayonlar ta'sirida adabiy til so‘z boyligining bir qismi ham sanaladi [2].

Kompyuter so‘zlarini terminologik va terminologik bo‘lmagan guruhga tasniflash mumkin. Aslida, kompyuter so‘zlari turli darajadagi "terminologizatsiya" ga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘pchilik terminologik tushunchalar umumiy til so‘zlari sifatida iste'molga chiqmoqda: *download* (*yuklab olish)* bir necha yil oldin faqatgina kompyuter mutaxassislariga ma'lum bo‘lgan, bugungi kunda esa bu odatiy holga aylangan. *Download* terminining bunday ommalashishi, ehtimol, so‘z yaratilgan paytda taxmin qilimagandir: uning keng jamoatchilik tomonidan ishlatilishi internetning portlashi natijasida yuzaga keldi. Ammo boshqa hollarda, agar so‘z yaratilsa, u mutaxassis bo‘lmaganlar orasida ham keng foydalanish uchun mo‘ljallanganligini sezish qiyin emas. Misol uchun, *desktop (ish stoli)*, *folder (papka)*, *recycle bin (chiqindi qutisi), wallpaper (gul qog‘oz)* kabi foydalanuvchi interfeysi tushunchalari.

Terminograflar ham, leksikograflar ham kompyuter so‘zlariga turlicha yondashuv asosida tahlil qiladi. Xususan, terminograflar shu soha yo‘nalishidagi asosiy terminlarning qo‘llanilishi bilan shug‘ullansa, leksikograflar esa leksik birliklarning kompyuter ma'nosini izohlashga harakat qiladi. Terminograflarning vazifasi – ma'lum bir soha yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan so‘zlar, zarur holatlarda esa yangi yaratilgan terminlarni tahlil qilish va tavsiflash. Leksikograflar ham so‘zning ma'nosini va uning kontekstda qanday ishlatilishini tavsiflash bilan shug‘ullanadilar. Leksikograflardan farqli o‘laroq, terminograflar leksik elementni tahlil qilganda, ular faqat ma'lum bir bilim sohasidagi ushbu elementning ma'nosini nazarda tutadilar. Masalan, *virus* termini kamida ikki xil atamaga to‘g‘ri keladi, biri tibbiyotda, ikkinchisi hisoblashda.

Terminografning eng asosiy vazifasi yangi yo‘nalishdagi paydo bo‘lgan tushunchalarni aniqlash va ularni mos atamalar bilan iloji boricha tezroq moslashtirishdir [3]. Demak, leksikograflardan farqli o‘laroq, terminograflar tavsiflovchi rolga emas, balki tildan qanday holatda foydalanish kerakligini ifodalovchi vazifaga ega: atamalarni standartlashtirish juda muhim, chunki odatda "yuqori sifatli" terminologiya (masalan, sinonimiyaning yo‘qligi, shaffof atama shakllanishi) bilimlarni samarali rivojlantirishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, terminologiya qancha mukammal bo‘lsa, mutaxassislar hamda nomutaxassislar o‘rtasida tillar bo‘yicha bilimlarni uzatish osonroq bo‘ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kompyuter atamalari terminograflarni ikki sababga ko‘ra qiziqtiradi. Birinchidan, kompyuter atamalarining aksariyati juda ixtisoslashgan (ya'ni bizning kundalik hayotimizga kirib bormagan) va shuning uchun ular umumiy til lug‘atlarida emas, balki maxsus yaratilgan terminologik lug‘atlarda aks ettiriladi. Hozirgi kunda hisoblash texnikasi jamiyatimizning eng muhim va eng tez o‘sib borayotgan sohasi sifatida, uning samarali rivojlanishiga ko‘maklashish uchun sohada ba'zi terminologik "tartib" bo‘lishi zarur. Ikkinchidan, bizning kundalik hayotimizga o‘zlashgan kompyuter so‘zlari dastlab terminograflar, keyinchalik esa lug‘atshunoslar tomonidan tatbiq etiladi.

Kompyuter terminografiyasi tibbiyot yoki kimyo kabi yuqori darajada tuzilgan etimologik xususiyatga ega emas. Terminograf Ahmad ta'kidlaganidek, “Kompyuter sohasidagi keng tarqalgan so‘zlarning ba'zilari O‘rta asr ingliz tili (Middle English) dan kelib chiqqan va shuning uchun lotin tiliga asoslangan” [4]. Masalan, *computer (kompyuter)* lotin tilidagi *computare* so‘zidan olingan. Tilshunos yana *algorithm (algoritm)*, *data (ma'lumotlar)*, and *program (dastur)* kabi so‘zlarni ham xuddi shu kabi tasniflaydi. Ko‘plab ilmiy sohalarda an'ana tarzda qo‘llaniluvchi

iyerarxik ketma-ketlikdagi kabi namunalar hisoblash texnikasiga oid atamalar uchun ham o‘rinli: *printer (printer) → laser printer (lazerli printer) →colour laser printer (rangli lazerli printer)*.

Pitch va Draskuning fikricha, “Kompyuter terminlarining asosiy qismi barchaga allaqachon ma’lum, chunki ular mavjud umumiy til ma’nolarining qayta ifodalanishi – *terminologizatsiya* bilan tasniflanadi” [5]. Ushbu jarayonga ingliz tilidagi *mouse, desktop, mega, mailbox, domain, virtual, windows* kabi terminlarni olishimiz mumkin. Masalan, tilimizning zamonaviylashishi natijasida biz o‘zbek tiliga *sichqoncha, disk, internet etikasi* kabi so‘zlarni termin sifatida o‘zlashtirganmiz.

Qiziq jihati shundaki, ba’zi terminlar kompyuter sohasida namoyon bo‘lishidan oldin boshqa ixtisosliklarning termini sifatida qo‘llanilgan. Masalan, *surfing (internetda vaqt o‘tkazish) – channel – surfing (televizor qarshisida vaqt o‘tkazish); bandwidth (hisoblash texnikasida ma’lumotlar uzatish tezligini bildiradi)* –telekommunikatsiyada esa u *aloqa kanalining spektri*; *virus*, albatta, tibbiyot nuqtayi nazaridan kasallikka sabab bo‘luvchi mikroorganizm sifatida).

Kompyuter terminlarini foydalanuvchilar tomonidan to‘laqonli qabul qilinishi, iste’molga qulay bo‘lishida ularning metaforik xususiyatlari ham ahamiyatlidir. Hisoblash texnikasi va internet kabi rivojlangan sohalar o‘zining ommabop metaforalariga egaligi tadqiqotlarda isbotlangan. “Nima uchun metafora hisoblashda juda keng tarqalgan?” Ushbu savolga Lakoff va Jonsonning: “Metaforaning mohiyati bir turdagi narsani boshqa atama yoki so‘z bilan tushunish va amalga oshirishdir” [6]. Shubhasiz, metaforalarni shu yo‘nalishda ommalashganligining muhim sabablaridan biri shundaki, ularning nazariy jihatdan sodda va tushunarli ekanligidir. Ko‘pgina kompyuter metaforalari markaziy mavzular atrofida to‘planadi, bu hodisa boshqa sohalar uchun ham qayd etilgan [7]. Asosiy mavzularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Office (idora): *desktop, recycle bin, files, folders*

Transportation (tashish, uzatish): *information highway, web traffic, on-ramp*

Architecture (arxitektura): *site* (*construct/build a site*), *under construction, gateway, window*

Printed medium (nashriyot): *web page, bookmark, browse the web, e-zine*

Animals (hayvonlar): *mouse, snailmail, web, spider*

Community (jamoa): *cyberculture, virtual community, home page.*

Ushbu metafora tizimliligidan farqli o‘laroq, boshqa kompyuter so‘zlari bizni kutilmagan etimologiyasi bilan taajubga soladi. *Spam* (*Internet arzimas-pochta*) ayniqsa qiziq holat. *Spam* Amerika va Buyuk Britaniyada urush paytida, go‘sht kelishi qiyin bo‘lgan paytda sotiladigan arzon konserva mahsuloti bo‘lib, go‘sht o‘rnini bosuvchi sifatida yaxshi tanilgan. Yaqinda *spam* termini Monti Pithon namoyishida ommalashtirildi, uni yosh avlodga qayta tanishtirdi. Shu kabi metaforaning madaniy oqibatlari tarjima muammolariga sabab bo‘luvchi ajoyib manba hisoblanadi [8].

Yuqorida biz kompyuter terminlarining etimologiyasi, metaforik xususiyati haqida to‘xtaldik. Keyingi o‘rinda esa ularning strukturaviy shakllarini izohlaymiz.

Hisoblash texnikasida qo‘llaniladigan ba’zi strukturaviy o‘zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Qisqartirish – Sagerning fikricha, ushbu jihat o‘zida barcha qisqartma shakllarni jamlaydi [9]. Kundalik hayotimizdagi barcha kompyuter terminlari ushbu olimning fikrlarini tasdiqlaydi. Ammo ularning barchasi norasmiy uslubda va ma’lum kulgili holat uchun qo‘llaniladi.

2. Abrivatsiya, akronimlar. Ayto *CD, IT, DVD, HTML, Y5K* kabi teminlarni davrlashtirgan [10]. Uning ro‘yxatida bundan tashqari yana to‘rtta "talaffuz qilsa bo‘ladigan" *LAN, FAQ, ROM, wysiwyg* qisqartmalar mavjud edi. Qisqartmalar, ayniqsa, ularning talaffuzi quyidagicha: *wysiwyg (what you see is what you get*), va *SCSI* (*small computer system interface) - (kichik kompyuter tizimining interfeysi, "scuzzy"* deb talaffuz qilingan) va *VRML (virtual reality modelling language) -* (*virtual dunyoni modellashtirish tili*, ko‘pincha "vermil" deb talaffuz qilinadi).

3. Bo‘g‘in kesish usulidagi qisqartmalarga *net, web, e – mail (elektron pochta), sig (signature)* (imzo uchun), *morphing* (metaforfoz) va *megs* (megabayt) kabi tez-tez ishlatiladigan so‘zlar kiradi.

4. Kompositsiya usulida so‘z yasalish. Ayto ushbu guruhga *computerate, cyberpunk, email, cybernaut, netizen, screenager, technoplegia, netiquette*, eng so‘nggisi *e – tailing* kabi terminlarni kiritishni taklif etgan [11]. Guruhdagi ba’zi qorishmalar turli soha janrlarining

kesishmasidan hosil bo‘lgan: *intermercial* (hisoblash + televizor/radio) va *texchnoplegia* (hisoblash + tibbiyot).

Yuqorida keltirilgan afiksatsiya hodisasi lotin va yunon tili ta’siri natijasida yuqori darajada tuzilgan shakllanish strukturlariga ega bo‘lgan sohalarda markaziy o‘rinda turadi. Biroq, hisoblash texnikasi sohasida kam holatlarda namoyon bo‘ladi: *Cyber (kiber) – cyberpunk, cyberspace, e-(email, e-verdict), -ware (software, shareware, vapourware), techno (technobabble, technostress).*

Kompyuter terminlari nafaqat soha mutaxassislari, balki barchamiz uchun oddiy iste’moldagi so‘zlarga aylanishining sababi sifatida Meyer “Biz ushbu leksik migratsiya jarayonini "de-terminologizatsiya" deb ta’riflaymiz” [12] Ushbu jarayonning kompyuter sohasiga aloqadorligi shundaki, biz kundalik turmush tarzimizda ko‘plab terminlarni ishlatishga majburmiz*. Dowload* (*yuklab olish), desktop (ish stoli)* va *e – mail (elektron pochta)* kabi so‘zlar deyarli har kuni qo‘llaniladi.

Ma’lumki, axborot – kommunikatsiya tiziminining jadal rivoji o‘zbek terminologiyasining G‘arbiy Yevropa tillaridan so‘zlar kirib kelishiga asosiy omil hisoblanadi [13]. Ushbu jarayon bevosita tarjima, o‘zbek tiliga o‘zlashish, ya’ni qonun qoidalariga bo‘ysundirish, tartibga solish kabi bir necha muammolarga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan yangi paydo bo‘layotgan terminlarni asl holicha o‘zashtirish an’anasi yetakchi usul sanaladi.

XULOSA

Jamiyatimizda kompyuter texnologiyalarining o‘rni shunda ahamiyatliki, ushbu sohada yaratilayotgan kashfiyotlar bevosita terminologiyaning rivojiga ham ulkan ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Kundan – kunga yangi atama va terminlar qo‘shilishi tabiiy [14].

Maxsus terminologiya kompyuter va internet terminlari muloqotida katta ahamiyatga ega. Ushbu terminlarning lingvistik xususiyatlari, tarjima qilish muammolari, termin – o‘zlashmalar sifatida boshqa tilga qabul qilish bir muncha izlanishni talab etadi. Xuddi shu jihat, terminograflar va leksikograflar oldidagi muhim vazifa sanaladi.

Kompyuter terminologiyasi ingliz va o‘zbek tili lug‘at boyligining asosiy tarkibiy qismi bo‘lasa-da, ularning strukturaviy va semantik xususiyatlarini yangi jihatlarini o‘rganish hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Bakhtin M.M. Collected works in 7 t. T.5. Working 1940s – early 1960s // ed:S.G. Bocharov, L. A. Gogotishvili, Institute of world lit. – M., 1997.
2. Tolkinova, I. S. (2022). SEMANTIC FEATURES OF MODERN TERMINOLOGY. Eurasian Journal of Academic Research, 2 (2), 78-84.
3. Juan Sager: *A Practical Course in Terminology Processing*, (Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins) 1990.
4. Khurshid Ahmad: "Neologisms, Nonces and Word Formation", in: *Euralex 2000 Proceedings*.
5. Heribert Picht and Jennifer Draskau: *Terminology: An Introduction*, (Guildford: University of Surrey) 1985.
6. George Lakoff and Mark Johnson: *Metaphors We Live By*, (Chicago: University of Chicago Press) 1980.
7. Frank Knowles: "Lexicographical Aspects of Health Metaphor in Financial Text", in: Martin Gellerstam *et al*. (Eds): *Euralex ’96 Proceedings*, Part II (Göteborg: Göteborg University Department of Swedish) 1996: 789-796.
8. Ingrid Meyer, Kristen Mackintosh and Krista Varantola: "The Reality of *virtual*: On the Lexical Implications of Becoming a Knowledge Society", in: *Lexicology* Vol. 3/1: 129-163.
9. Juan Sager: "Term Formation", in: Sue Ellen Wright and Gerhard Budin (Eds): *Handbook of Terminology Management*, Vol. 1, (Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins) 1997: 25-41.
10. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, *2*(11), 162-167.
11. John Ayto: *20th Century Words*, (Oxford: Oxford University Press) 1999.
12. ugli Mirzaev, A. B. IMPROVING EFL/ESL CLASSROOMS THROUGH USING ONLINE PLATFORMS: NEARPOD–AS AN EXAMPLE OF TOP-RATED ONLINE EDUCATIONAL PLATFORMS.
13. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantical classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 571-575.
14. Kuchkarova, Z. (2021). COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS VERBALIZING THE CONCEPT OF" WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, *2*(2).